

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TA'LIMI
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QO'LOBOLA CHOLG'ULARDAN
FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

*Andijon viloyati Jalaquduq tumani 50- umumiy
o'rta ta'lif maktab musiqa madaniyati
fani o'qituvchisi Ergasheva Shaxnoza
Ilmiy rahbar, Andijon davlat pedagogika instituti
v.b.professori Xiola Botirova*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola umumta'lif maktablarida musiqa madaniyati fanini o'qitishda yuzaga kelayotgan muammolardan biri - cholg'u asboblarining yetishmasligi masalasini hal etishga qaratilgan. Maqolada muallif tomonidan taklif etilgan, uy sharoitida tayyorlanadigan shaqildoq-Buben cholg'usining afzalliklari, bolalarning musiqiy didini rivojlantirishdagi o'rni va pedagogik ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, qo'lbola cholg'ularning ta'lif jarayoniga joriy etilishi musiqa o'qituvchilarining dars samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslangan.

Kalit so'zlar: musiqa madaniyati, umumta'lif maktabi, cholg'u asboblari, qo'lbola cholg'ular, musiqa ta'limi, shaqildoq, bolalar musiqiy didi.

ANNOTATION

This article is aimed at solving one of the problems that arise in teaching music culture in secondary schools - the lack of musical instruments. The article discusses the advantages of the shakildok instrument, proposed by the author, made at home, its role in developing children's musical taste, and its pedagogical significance. It is also based on the fact that the introduction of hand-made instruments into the educational process serves to increase the effectiveness of music teachers' lessons.

Keywords: music culture, secondary school, musical instruments, hand-made instruments, music education, shakildok, children's musical taste.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'lif-tarbiya sohasiga qaratayotgan e'tibori va berayotgan imkoniyatlar yosh avlodni barkamol insonlar etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Maktab – kelajak bunyodkori. Shu bois, bu dargohni zamонавиъ bilim va ko'nikmalarga ega, fidoyi va jonkuyar ustoz-murabbiylar bilan ta'minlash – eng muhim vazifamizdir".¹ Ushbu vazifani amalga oshirishda musiqa madaniyati fanining o'rni beqiyosdir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2023 yil 28 dekabr.

Bugungi kunda musiqa madaniyati fanlarini umumta'lim mакtablarida olib borishimizda ayrim muammolarga duch kelamiz. Bulardan biri bolalarga cholg'u asboblarining yetishmovchiligi aynan musiqa o'qituvchilarining dars faoliyatlarini samarali va sifatli o'tishlarida musiqa cholg'ularning ahamiyati kattadir. Har bir dars o'zgacha va sifatli o'tishi uchun har bir darsning o'ziga o'xshamaslik tomonlarini izlab topish biz mutahasislarning oldimizda turgan maqsad vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda o'z umumta'lim maktabida musiqa fanini o'zgacha o'tish maqsadida yangi g'oya izlab topish asosiy maqsadlarimizdan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, cholg'u asboblarining yetishmovchiligi darslarning sifatli va samarali o'tishiga to'sqinlik qilmoqda. Har bir darsning o'ziga xosligini ta'minlash, bolalarning musiqiy didini rivojlantirish, ularni musiqa olamiga olib kirish o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biridir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bilamizki bolalarni umumta'lim maktabda ikki toifaga bo'lib olinadi. Boshlang'ich va yuqori. Boshlang'ich sinflarda bolalarni qiziqtirish uchun o'ynoqi ritmli musiqalarni berish va ularni qiziqtirish muhim ahamiyat kasb etadi.² Ta'limga muassasalari audio, video va multimediali vositalardan foydalanish orqali darslarni qiziqarli o'tkazishga harakat qiladi. Ammo, texnik nosozliklar yoki boshqa sabablarga ko'ra, darslarni tabiiy usulda o'tkazish zarurati tug'iladi. Aynan shu paytda cholg'u asboblarining yetishmovchiligi muammosi o'zini ko'rsatadi.

Biz ushbu muammoni hal etish maqsadida, uy sharoitida tayyorlash mumkin bo'lgan shaqildoq-buben cholg'usini yaratish g'oyasini ilgari surdik. Ushbu g'oya asosida yaroqsiz lampa (chiroq) korpusidan va loviya donalaridan foydalanilgan holda, bolalar uchun xavfsiz va yoqimli ovozga ega bo'lgan shaqildoq cholg'usi yaratildi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, uy sharoitida tayyorlangan shaqildoq cholg'usi quyidagi afzalliliklarga ega:

- Cholg'u asboblariga bo'lgan ehtiyojni qondiradi;
- O'quvchilarni cholg'u asbobi bilan ta'minlashning eng oson yo'llaridan biri hisoblanadi;
- Har bir xonadonning ota-onasi va bolaning o'zi tomonidan tayyorlanishi mumkin;
- Bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi;
- Dars jarayonini qiziqarli va rang-barang qiladi.

Mazkur yaratilgan g'oyamizni yartishda bizga bir qachncha uy sharoitida kerakli maxsulotlar mavjud bo'lib bularni amaliy ko'rinishini ham sizlar bilan baham ko'rishni lozim deb topdik.

² Ochilova, M. (2018). Musiqa madaniyati darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi.



Kerakli jihozlar:

- 1-Qaychi
- 2-Lo‘ya
- 3-Yaroqsiz lampa
- 4-yaltiroq mato



1-rasm

Ko‘rib turganizdek yasalgan shiqqildoq o‘yinchoq misolidagi musiqiy cholg‘u juda oson va tez uy sharoitida yasalishi mumkinligini ko‘rishimiz mumkin, bu yasalgan cholg‘uni o‘quv jarayonida ishlatalishni ham joriy etganmiz. Bu ortiqcha shovqfin solmasligi bilan hamda yoqumli tovush xosil qilishi bilna ham ajralib turdi.



2-rasm

XULOSA

Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o'qitishda cholg'u asboblarning yetishmovchiligi muammosini hal etishda qo'l bola cholg'ulardan foydalanish samarali yechim bo'lishi mumkin. Taklif etilgan uy sharoitida tayyorlanadigan shaqildoq cholg'usi bolalarning musiqiy didini rivojlantirish, ularning ijodiy qobiliyatini oshirish va dars jarayonini qiziqarli qilish imkonini beradi. Bu o'z-o'zidan ham cholg'uga bo'lgan bizning ehtiyojimizni qondirsa, ikkinchi tomondan o'quvchilarni cholg'u asbobi bilan ta'minlashning eng oson yo'llaridan biri hisoblanadi. Uyda yaroqsiz lampa chirog'ini olib, uy sharoitida 6 yoki 8 dona loviyadan foydalangan holatda buni yasash har bir xonadonning ota-onasining qo'lidan keladigan va qolaversa bolaning o'zining ham qo'lidan keladigan ixtirolardan biri deb hisoblanadi va bu bilan aynan cholg'ularning yetishmovchiligiga o'z sharoitimizdan kelib chiqqan holda har bir sinfga tavsiya etish bizning oldimizdagи vazifalarimizdan biridir.

Kelgusida ushbu yo'nalishda tadqiqotlar olib borish, qo'l bola cholg'ularning boshqa turlarini yaratish va ularning ta'lim jarayonidagi o'rnnini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi, 2023 yil 28 dekabr.
2. Ochilova, M. (2018). Musiqa madaniyati darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi.
3. Botirova, Xilola Tursunbaevna. "THE PLACE OF MUSIC IN UPBRINGING OF YOUNG PEOPLE." *Science and Education* 1.1 (2020): 512-517.
4. Tursunbaevna, Botirova Xilola. "The place of music in upbringing of young people." *Science and Education* 1.1 (2020): 512-517.
5. Tursunbaevna, Botirova Khilola. "PERFORMANCE CULTURE IN INSTRUMENTAL PERFORMANCE." *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development* 3 (2022): 163-167.
6. Karomatov, F.M., Nuriddinov, M.N. (1987). Musiqa lug'ati.
7. Abdullayev, I. (2006). Bolalar musiqiy ijodiyotini rivojlantirish.